

O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISHNING XOTIN-QIZLAR HAYOTIDAGI ROLI.

Sunatova Dilfuza Abatovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Matematika kafedrasida dotsent v.v.b.

Rasulova Ra'no Nematullo qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11300052>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda raqamlashtirishning mamlakatimiz xotin-qizlar hayotidagi o'rni, raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar va bu borada xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, yaratilayotgan imkoniyatlar, texnologiya, teng huquqlilik, ta'lim olish.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль цифровизации в деятельности женщин нашей страны, реформы, реализуемые в сфере цифровизации, и возможности, созданные для женщин в этой сфере.

Ключевые слова: цифровизация, создаваемые возможности, технологии, равные права, образование.

Annotation. This article examines the role of digitalization in the lives of women in our country, the reforms being implemented in the field of digitalization, and the opportunities created for women in this regard

Key words: digitalization, created opportunities, technology, equal rights, education. Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tenglik borasidagi eng yirik anjumani – BMT Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiyasining 67-sessiyasi "Raqamli texnologiya davrida innovatsiyalar, texnologiyalar va ta'lim – barcha ayollar va qizlarning gender tengligiga erishishga hamda huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak", degan shior ostida o'tdi.

Raqamlashgan zamon butun dunyoda xotin-qizlarning hayotini tubdan yaxshilash uchun yangi va misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Buni raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga kirib borayotganidan ham yaqqol anglash mumkin. Jumladan, hayotimizning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarini jadallik bilan o'zgartirmoqda. Shu bilan bir qatorda ko'p vaqtdan buyon bir chekkaga chiqib qolgan ayollar va qizlar o'zlarini o'nqlab olishlari uchun yangidan-yangi tayanch nuqtalarini yaratmoqda.

Ayni sohada hozirgacha global ko'lamdagi aniq qonun-qoidalar va tartib-taomillar mavjud emas. Bu, o'z navbatida, nozik aholi qatlami vakilalari huquqlarining poymol etilishiga va shaxsiy hayoti daxlsizligi buzilishiga sabab bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, BMT Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga asos solinganidan so'ng oradan ikki yil o'tib, 1947 yilda tashkil etilgan. O'shanda turli mamlakatlar hukumatlari 15 nafar namoyandasidan iborat xotin-qizlar guruhi gender tenglikning halqaro-huquqiy asoslarini shakllantirish maqsadida N'yu-Yorkda to'plangan. Ular dunyo hamjamiyatining xotin-qizlar muammolaridan xabardorligini oshirish va bu boradagi kamsitishlarga yo'l qo'yadigan qonunchilikni o'zgartirishga astoydil kirishganlar.

Shu tariqa Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ishlab chiqilishiga munosib hissa qo'shgan va genderni oid iboralardan imkon qadar keng foydalanishga erishish yo'lida izchil muzokaralar olib borgan. Komissiyaning bu

boradagi faoliyatining dastlabki muhim natijalari qatorida xotin-qizlarning siyosiy huquqlari, nikohdagi ayollarning huquqlari va teng hajmdagi mehnat uchun teng miqdordagi to'lov huquqi to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar ishlab chiqilganini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Komissiya xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ijtimoiy sohalar va ta'lim sohasidagi huquqlarini rag'batlantirish to'g'risida Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga tavsiyalar hamda ma'ruzalar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, u erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqliligi tamoyilini amalga oshirish maqsadida xotin-qizlar huquqlari sohasidagi eng muhim muammolar bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish yuzasidan tavsiya va takliflar ham tayyorlaydi.

Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya keyingi o'n yilliklarda yanada faollashib, Xotin-qizlar ahvoriga bag'ishlangan to'rtta Butunjahon konferensiyasini o'tkazdi. Komissiya tomonidan tuzilgan va ayollar huquqlarining turli sohalar bilan shug'ullanadigan BMTning bir nechta bo'limlari 2011 yilda «BMT – ayollar» nomli yagona tuzilmaga birlashdi.

«BMT – ayollar» – BMTning gender tengligi va xotin-qizlarning huquqlari hamda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasida faoliyat olib boruvchi maxsus tuzilmasidir. U butun jahonda ayollar va qizlarning muhtojliklari-yu ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan.

Yana bir achinarli raqam: pandemiya oqibati tufayli 2020 yilda xotin-qizlar 800 milliard dollar miqdoridagi daromadlarini boy bergan. Bu ham yetmagandek, ularning mehnat bozoridagi ishtiroki pasaygandan-pasayib bormoqda. [COVID-19](#) pandemiyasi va boshqa shu kabi global miqyosdagi inqirozlar asnosida onlayn-makon imkoniyatlaridan foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, 17 martgacha davom etadigan BMT Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiyasi 67-sessiyasi tashkilotchilari da'vat etganlaridek, "Keljakka olg'a intilar ekanmiz, xotin-qizlarimizni o'tmishda qoldirib ketmaslikka ishonchimiz komil bo'lmog'i kerak. Ushbu uchrashuv raqamli istiqbolimiz porloq bo'lishini ta'minlash uchun noyob imkoniyatdir".

Shuning uchun ham, ayni vaqtda butun dunyo mamlakatlari hukumatlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlarining vakillari, ekspertlar va faollar bir yoqadan bosh chiqarib ishlash maqsadida Nyu-Yorkda jam bo'lganlar. Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya sessiyasining ikki haftalik faoliyati davomida ular barcha ayollar va qizlarning huquqlari va imkoniyatlari yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish hamda xotin-qizlarning yangi texnologiyalardan foydalanish borasidagi ulkan salohiyatini izchil rivojlantirish istiqbollari ta'minlashga doir muhim qarorlarini ishlab chiqadilar.

BMT Bosh kotibi Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya joriy sessiyasining mavzusi – raqamli texnologiyalar va inson huquqlari xususida ham atroflicha so'z yuritdi. Uning e'tirof etishicha, insoniyatning teng yarmini tashkil etuvchi ayol zotining ijodiy g'oyalarisiz ilm-fan va texnologiyalar sohasi o'z salohiyatining faqat yarminigina ro'yobga chiqarishga qodir bo'ladi, xolos.

A.Guterrish qayd etganidek, uch milliard kishi haligacha Internetga ulanmagan va ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlardagi ayollar va qizlardir. Zero, keyingi yuz yilliklarning patriarxat yondashuv, kamsitishlar va eskicha qarashlar bosimi ostida o'tgani fan va texnika sohasida ulkan gender jarlik paydo qildi.

Agar ayol tibbiy xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniga ega bo'lsa, bundan uning oilasiga ham, jamiyatga ham manfaat yetadi. Modomiki, ayollar onlayn-banking va zaxiralardan foydalangan holda o'z biznesini ochar ekan, bu bilan jamiyatga ham, iqtisodiyotga ham foyda keltiradi.

A.Guterrish nutqi yakunida ilm-fan va texnologiyalar sohasida xotin-qizlar ishtirokining ahamiyatini yana bir bor ta'kidledi. Agar olimlar va ayol texnologlar global muammolar ustida bosh qotirishga kirishsa, o'sha muammolarga yechim topish imkoniyatlari tubdan ortadi, deya qayd etdi Bosh kotib.

NATIJALAR

Keyingi yillarda O'zbekistonda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni taziyoq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini hamda ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi ishtirokini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'nlab normativ-huquqiy hujjatlar amal qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarning kelgusida ham qat'iy davom ettirilishini ta'kidlagani bejiz emas. Chunki bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Prezidentimizning 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Mazkur hujjat bilan xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab olindi va amaliy ijrosi ta'minlanyapti.

Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga oliy ta'lim muassasasida tahsil olishi uchun 4 foizli kvota ajratildi. Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan xotin-qizlar uchun foizsiz ta'lim kreditlari joriy qilindi, magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi.

Ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim shartnomalarini mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplash tartibi joriy qilindi. Yana bir muhim qadam: ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o'qitish, malakasini oshirish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratildi.

Bunday xayrli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Shu maqsadda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ayollarimizga bo'lgan e'tiborni eng quyi bo'g'in – mahallagacha yetkazib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratilishi belgilandi.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarni ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar sohasidagi samarali faoliyatga keng jalb qilish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, bir tomondan, yurtimiz ayollari va qizlarining ilm-fandagi faolligini xalqaro miqyosda kuchaytirish, ikkinchi tomondan, ta'lim va ilm-fan sohalarida gender tenglikka erishish nihoyatda zarur.

Chunki aslida ham, ayol bilimli bo'lsa, tarbiya qilgan farzandlari zukko, salohiyatli bo'ladi. Yanada muhimi, ayol ilmi bo'lsa, millat ilmi bo'ladi.

Shonli tariximiz zarvaraqlarida To'maris va Bibixonim, Gulbadanbegim va Zebunniso, Nodirabegim va Anbar otin kabi oqila momolarimizning muborak nomlari manguga muhrlangan. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasining "Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri" nomli faslida moziydan to o'z davrigacha yashab o'tgan yoki o'ziga zamondosh bo'lgan islom olamida mashhur 35 nafar shayx, orifa xotin-qizlarning ruhiyati, shariati, tariqati, ijodlari xususida lavhalar bitgan.

NATIJA

Shunday ekan, ayolni o'qitish butun jamiyatni, millatni o'qitish bilan barobar ekanini butun ommaga etkazishimiz kerak. Shundan kelib chiqqan holda, oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan biri bu umumiy ta'limdan tashqari oliy ta'limda ham ayol-qizlar ulushini oshirish, kasbga, raqamlashtirish hamda kompyuter savodxonligini oshirish va ularning nafaqat oiladagi, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish masalalari hozigi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda.

Адабиётлар руйхати

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022-y., 06/22/87/0198-son
2. "Oqila ayollar" harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori (437-son, 08.08.2022-yil)
3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.09.2021-y., 09/21/585/0888-son; 09.06.2022- y., 09/22/322/0506-son